O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Xitoy karamining sotish va sifatini nazorat qilish standarti

(FFV-44:2023, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #40VGEWRCXE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 14-sentabrdagi 32/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart “UNECE standard FFV-44 concerning the marketing and commercial quality control of Chinese cabbage” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #40VGEWRCXE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Izoh

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) huzuridagi Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni yengillashtirishga, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga, rentabellikni oshirishga hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. UNECE standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdo tashkilotlari, importchilar va eksportchilar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadilar. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng doirasini, jumladan yangi meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan har qanday davlat Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari haqida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun quyidagi veb-saytga tashrif buyuring: http://www.unece.org/trade/agr/welcome.html.

Xitoy karami uchun qayta ko‘rib chiqilgan standart ECE/CTCS/WP.7/2021/19 hujjati asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, 2021-yilda Ishchi guruh tomonidan ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan (COVID-19 davrida amal qilgan maxsus tartib-taomillarga muvofiq, keyinchalik e’tiroz bildirmaslik tartib-taomili qo‘llanilgan).

STANDARTLAR INSTITUTI #40VGEWRCXE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Xitoy karami marketing va mahsulot sifatini nazorat qilish

Китайская капуста маркениг и контолькачества продукции

Standard concerning the marketing and commercial quality control of Chinese cabbage

Amalga kiritish sanasi: 14.11.2026

I Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart qoidalari iste’molchilarga yangi uzilgan holda etkazib beriladigan, *Brassica rapa subsp. pekinensis (Lour) Hanelt dan olingan botanik navlarga (madaniy navlarga) mansub Xitoy karamiga nisbatan qo‘llaniladi; sanoat usulida qayta ishlashga mo‘ljallangan Pekin karami bundan mustasno.

Xitoy karamining ikki xili mavjud: uzun, yumaloq

II Sifatga oid qoidalar

Ushbu standartning maqsadi xitoy karamini tayyorlash va qadoqlashdan keyingi sifat talablarini belgilashdan iborat.

Biroq, eksportga jo‘natish/yuklashdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilganda, mahsulotlarda standart talablariga nisbatan quyidagi holatlar kuzatilishi mumkin:

- yangiligi va taranglikning biroz pasayishi;
- rivojlanishi va buzilishiga moyilligi tufayli holatining biroz yomonlashuvi.

Mahsulot egasi/sotuvchisi bunday mahsulotlarni ushbu standartga muvofiq bo‘lmagan holda namoyish etishi, sotuvga taklif qilishi, yetkazib berishi yoki boshqa har qanday usulda realizatsiya qilishi taqiqlanadi. Mahsulot egasi/sotuvchisi mazkur muvofiqlikka rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Barcha mahsulot sinflaridagi Xitoy karami, har bir sinf uchun ko‘zda tutilgan maxsus qoidalar va ruxsat etilgan cheklanishlarni hisobga olgan holda, quyidagi talablarga javob berishi kerak:

• shikastlanmagan; biroq ba’zi tashqi barglar olib tashlanishi va barglar kesilishi mumkin;

• sog‘lom; iste’molga yaroqsiz holga keltiradigan darajada chirish yoki buzilishga uchragan mahsulotlar bundan mustasno;

• toza; ko‘zga ko‘rinadigan begona aralashmalardan deyarli xoli;

• ko‘rinishi barra;

• deyarli zararkunanda hasharotlarsiz;

• zararkunanda hasharotlar deyarli zarar etkazmagan;

• ortiqcha o‘sish belgilarsiz;

• sirtida ortiqcha namliksiz;

• begona hid va/yoki ta’msiz.

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #40VGEWRCXE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘zak barglarning eng past o‘sish nuqtasidan biroz pastroqda kesilishi kerak, lekin barglar zich yopishib turishi kerak. Kesim toza bo‘lishi kerak. Saqlash vaqtida kesim yuzasidagi tomirlarning biroz rangga kirishiga yo‘l qo‘yiladi. Xitoy karamining etilganlik darajasi va holati quyidagilarni ta’minlay olishi kerak:

• tashishga, yuklash va tushirishga bardosh bera olsin.

• belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetkazib berilishini ta’minlash.

B. Tasniflash

Xitoy karami quyida belgilangan ikkita mahsulot sinfiga bo‘linadi:

i) Birinchi sinf

Bu sinfdagi xitoy karami yaxshi sifatli bo‘lishi kerak. U o‘zining botanik navi va/yoki mahsulot turining xarakterli belgilariga ega bo‘lishi kerak.

Barglari zich va mahkam yopiq bo‘lishi kerak.

Quyidagi kichik nuqsonlar ruxsat etilishi mumkin, agar ular mahsulotning umumiy ko‘rinishiga, sifatiga, saqlash muddatiga va qadoqlashdagi taqdimotiga ta’sir qilmasa:

shaklda biroz nuqson

rangdagi biroz nuqson

tashqi barglarda kichik yorilishlar.

ii) Ikkinchi sinf

Ushbu sinfga I sinfga kirmaydigan, lekin yuqorida belgilangan minimal talablarga javob beradigan Xitoy karami kiradi.

Ular yetarlicha zich boshga ega bo‘lishi kerak, biroq barglari kamroq mahkam yopishgan bo‘lishi mumkin.

Gulpoyaning umumiy uzunligi karam o‘zagining uchdan bir qismidan oshmasligi kerak.

Xitoy karami o‘ziga xos sifat belgilarini, saqlanuvchanligini va mahsulot ko‘rinishini saqlab qolgan taqdirda quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

shakldagi nuqsonlar

rangdagi nuqsonlar, shu jumladan sovuq ta’sirida yuzaga kelgan yengil rang o‘zgarishi

tashqi barglarda yengil ezilishlar

tashqi barglardagi yorilishlar

barg chekkasida yengil nekrozi

III O‘lchamga oid qoidalar

O‘lcham karam boshining og‘irligi asosida aniqlanadi.

O‘lcham bo‘yicha bir xillikni ta’minlash maqsadida, bir xil qadoqdagi mahsulotlar o‘rtasidagi o‘lcham farqi quyidagilardan oshmasligi kerak:

I sinf uchun: eng og‘ir bosh eng yengil bosh og‘irligidan 1,5 baravardan ortiq bo‘lmasligi kerak

II sinf uchun: eng og‘ir bosh eng yengil bosh og‘irligidan 2 baravardan ortiq bo‘lmasligi kerak

IV Ruxsat etilgan me’yorlarga oid qoidalar

Sotishning barcha bosqichlarida har bir to‘pda ko‘rsatilgan mahsulot sinfi uchun belgilangan sifat va o‘lcham talablariga javob bermaydigan mahsulot mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.[1]

STANDARTLAR INSTITUTI #40VGEWRCXE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

A. Sifat bo‘yicha ruxsatlar

i) Birinchi sinf

Umuman olganda, ushbu sinf talabiga javob bermaydigan, lekin ikkinchi sinf talabiga javob beradigan Xitoy karami miqdori yoki vazni bo‘yicha 10% bo‘lishiga ruxsat etiladi. Ushbu ruxsat etilgan chegarada umumiy miqdor/og‘irlikning 1% dan ko‘p bo‘lmagan qismini ikkinchi sinf sifat talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan yoki degradasiyaga uchragan mahsulotlar tashkil etishi mumkin.

ii) Ikkinchi sinf

Umuman olganda, ushbu sinf talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan Xitoy karami miqdori yoki vazni bo‘yicha 10% bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ruxsat doirasida umumiy miqdor/vaznning 2% dan oshmasligi kerak bo‘lgan mahsulotlar degradatsiyaga uchragan bo‘lishi mumkin.

B. O‘lchamiga oid ruxsatlar

Barcha mahsulot sinflari uchun: kalibrlash talablariga javob bermaydigan Xitoy karamining umumiy miqdori yoki vazni 10% dan oshmasligi kerak.

V Mahsulot ko‘rinishi bo‘yicha qoidalar

A. Birxillik

Har bir qadoqning ichidagilar bir xil bo‘lishi, shuningdek, faqat uning kelib chiqishi, botanik navi yoki mahsulot turi, sifati va o‘lchami bir xil bo‘lgan Xitoy karamini o‘z ichiga olishi shart.

I sinfdagi Xitoy karami deyarli bir xil rangda va sezilarli darajada bir xil uzunlikda bo‘lishi lozim.

Qadoqning tashqaridan ko‘rinib turgan qismi uning ichidagi barcha mahsulotni to‘liq ifodalashi kerak.

B. Qadoqlash

Xitoy karami mahsulotning yetarlicha saqlanishini ta’minlaydigan usulda qadoqlanishi lozim.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza va mahsulotga ichki yoki tashqi shikast yetkazmaydigan sifatda bo‘lishi kerak. Materiallardan, xususan, qog‘oz yoki savdo spetsifikatsiyali etiketkalardan foydalanish mumkin, ammo matn yozish yoki etiketkalarni yopishtirishda zaharli bo‘lmagan siyoh yoki yopishtiruvchi vositalar ishlatilishi shart.

Mahsulotga individual tarzda yopishtiriladigan etiketkalar shunday bo‘lishi kerakki, ularni olib tashlaganda ko‘zga tashlanadigan elim qoldiqlari qolmasin va po‘stning yuzasida nuqsonlar hosil bo‘lmasin.

Qadoqlarda hech qanday begona moddalar bo‘lmasligi kerak.

---

[1] Moslikni tekshirish birlamchi yoki aralash namunalardan tahlil orqali amalga oshiriladi. Bu tasodifiy tanlab olingan namunalarning sifati partiya sifatini vakillik qilishi prinsipiga asoslanadi. OECD ishchi qoidalari bo‘yicha moslik tekshiruvlari tavsiya etiladi — shu jumladan, operatorlar tomonidan jo‘natish bosqichlarida, shuningdek ovqat mahsulotlarini sotuvchi ulgurji va chakana markazlar hamda ularning omborlarida.

STANDARTLAR INSTITUTI #40VGEWRCXE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

VI Tamg‘alash bo‘yicha qoidalar

Har bir qadoqda[2] quyidagi ma’lumotlar aniq va o‘chmas shrift bilan, bir tomonda jamlangan holda va tashqaridan ko‘rinadigan tarzda ko‘rsatilishi kerak.

A. Identifikatsiya belgilari

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportyor.

Nom va jismoniy manzil (masalan, ko‘cha/shahar/tuman/pochta indeksi va mamlakat, agar u kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa) yoki milliy vakolatli organ[3] tomonidan rasmiy tan olingan kod belgilari, agar kodlash tizimi qo‘llaniladigan mamlakat ***UNECE***[4] kodlar registriga kiritilgan bo‘lsa. Agar aniq pochta manzili mavjud bo‘lmasa, jismoniy manzil sifatida ferma yoki obyekt nomi, yaqin shahar/tuman/oblasti va pochta indeksi, yoki GPS koordinatalari, shuningdek abonent qutisi manzili yaqin shahar, oblast va mamlakat ko‘rsatilgan holda qabul qilinadi.[5]

B. Mahsulot tavsifi

Agar qadoq ichidagi mahsulot tashqaridan ko‘rinmasa, “Xitoy karami” degan yozuvi bo‘lishikerak.

C. Mahsulot kelib chiqishi

- Kelib chiqish mamlakati[6] va ixtiyoriy ravishda, yetishtirilgan hudud yoki milliy, mintaqaviy yoki mahalliy nom.

D. Tovar xususiyatlari

- Mahsulot sinfi.
- Boshlar soni (ixtiyoriy).

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1991 yilda qabul qilingan,

Oxirgi marta 2021 yilda ko‘rib chiqilgan,

2023 yilgi standartlar namunaviy shakliga moslashtirilgan.

---

[2] Ushbu tamg‘alash qoidalari, agar bu ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lsa, boshqa qadoqlarga joylangan iste’molchi qadoqlarga tatbiq etilmaydi. Biroq, ular alohida realizatsiya qilinadigan savdo qadoqlariga (iste’molchi qadoqlariga) nisbatan qo‘llaniladi.

[3] Ayrim mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilning aniq ko‘rsatilishini talab qiladi. Biroq, kod belgilari qo‘llanilganda, kod belgisiga bevosita yaqin joyda «qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi» (yoki tegishli qisqartmalar) degan belgi bo‘lishi kerak, shuningdek kod belgisidan oldin sertifikatlovchi mamlakatga tegishli (ikki harfli) mamlakat/region kodi (ISO 3166) ko‘rsatilishi lozim, agar u kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa.

[4] Qarang: UNECE kod belgilari reyestri.

[5] Amerika Qo‘shma Shtatlarining abonent qutisi manzilidan foydalanish bo‘yicha izohi, chunki bunday manzil korxonada inspeksiya o‘tkazish yoki mahsulotni qaytarib olish zarur bo‘lganda tezkor choralar ko‘rish imkonini bermaydi hamda qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksportyor bilan bog‘liq milliy markirovka talablarining bir qismi hisoblanmaydi.

[6] To‘liq yoki odatda qo‘llaniladigan nom ko‘rsatilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #40VGEWRCXE - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI